

Matyoqubova Mavluda Shonazarovna

Barkamol avlod bolalar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada ekologik muammolarning iqtisodiy jihatdan bog'liqligi, tabiiy sharoitning inson ta'siridagi, ya'ni antropogen o'zgarishi kishilik jamiyatining tabiatga ham ekologik jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan bog'liqligi shakllarini kengaytiradi. Fan- texnika inqilobi sharoitida tabiat sifat jihatidan juda tez o'zgaradi va shunga muvofiq ko'pgina geografik rayonlar xo'jalik faoliyatini qayta qurishga to'g'ri keladi. Atmosfera havosi sifatining antropogen omil ta'sirida keskin o'zgarishi faqat ekologik oqibatlarga emas, balki iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin ekanligi xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, iqtisodiyot, fan- texnika, geografik rayonlar, atmosfera havosi, antropogen, elektron va optik apparaturalar, antibiotiklar, ximiyaviy moddalar, nooqilona faoliyat, xomashyo, material, yoqilg'i.*

Annotation: *In this paper, the economic interdependence of environmental problems, the anthropogenic change of natural conditions under human influence, expands the forms of human society's dependence on nature, both ecologically and economically. In the context of the scientific and technological revolution, nature is changing very rapidly in terms of quality, and accordingly, many geographical areas have to restructure their economic activities. It has been reported that abrupt changes in air quality under the influence of anthropogenic factors can have not only environmental but also economic consequences.*

Keywords: *ecology, economy, science and technology, geographical areas, atmospheric air, anthropogenic, electronic and optical equipment, antibiotics, chemicals, irrational activity, raw materials, materials, fuel.*

KIRISH Tabiiy sharoitning inson ta'siridagi, ya'ni antropogen o'zgarishi kishilik jamiyatining tabiatga ham ekologik jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan bog'liqligi shakllarini kengaytiradi. Fan- texnika inqilobi sharoitida tabiat sifat jihatidan juda tez o'zgaradi va shunga muvofiq ko'pgina geografik rayonlar xo'jalik faoliyatini qayta qurishga to'g'ri keladi. Masalan, atmosfera havosi sifatining antropogen omil ta'sirida keskin o'zgarishi faqat ekologik oqibatlarga emas, balki iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Yaqin vaqtlarga qadar atmosfera havosining sifati muammosi faqat ayrim sanoat markazlari va shaharlargagina tegishli bo'lib, havoning ekologik qulay xususiyatlarini saqlab turish uchun cheklangan tadbirlari kifoya qilar edi. Endilikda esa, ekologik jarayonning kuchayishi yuzlab shaharlarda, yirik sanoat markazlarida texnologik jarayonlarni takomillashtirish va qayta qurishni, qimmatbaho tozalash inshootlarini barpo qilishni taqozo etmoqda. Bir qancha nodir metallar, elektron va

optik apparaturalar, antibiotiklar hamda ximiyaviy moddalarni havo bilan suv nihoyatda toza boʻlgan sharoitdagina ishlab chiqarish mumkin.

Havoning salgina ifloslanishi ham jiddiy texnologik qiyinchiliklarga sabab boʻladi. Hozirgi zamon korxonalarini joylashtirishda borgan sari tabiiy komplekslar (landshaftlar) holati va sifatini sinchiklab hisobga olishga toʻgʻri kelmoqda. Insonning nooqilona faoliyati tabiatda ilgari sodir boʻlmagan va insonga maʼlum boʻlmagan bir qator yangi salbiy tabiiy jarayonlar va hodisalarning paydo boʻlishiga olib kelmoqda. Endilikda ularning oldini olish yoki salbiy taʼsirinn yumshatish uchun koʻpincha maxsus chora-tadbirlar koʻriladi yoki ishlab chiqarish ularga moslashtiriladi. Bunday hodisalarga fotoximik smog (nihoyatda quyuvq tuman), koʻl va suv omborlarining evtrofikatsiyasi (oʻsimlik bilan qoplanishi) va boshqalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Texnik daraja qancha yuqori boʻlsa tabiatdagi mustahkam va muhim boʻlgan aloqalar buzilish imkoniyatlari shuncha katta boʻladi va har bir konkret holatda alʼternativani tanlash uchun ilmiy tavsiyalarga extiyoj shuncha zarurdir, yoki tabiiy muhitni texnik yangiliklarga moslashtirishni engillashtirishga urinish yoki oʻylab qoʻyilgan oʻzgartirish rejasiga tuzatishlar kiritish hattoki undan voz kechish. Fan oldida, shunday qilib, yangi vazifa turadi: biosferani inson tomonidan yaratilgan sharoitlarga moslashtirish tizimini oʻrganish, oʻzgargan tabiiy muhitga insonni oʻzini moslashtirish mexanizmi va imkoniyatlarini oʻrganish va keng maʼnoda esa birlamchi biosferani va industrial – texnik elementlarni yaxlit tizimga birlashtirish mahsuli

boʻlgan yangi tizimli konuniyatlarni oydinlashtirishdir. Shu oʻrinda aytish kerakki, iqtisodiy fanlarni ekologiyalashning ahamiyati beqiyosdir. Chunki iqtisodiyot yoʻnalishi fanlari xususan iqtisodiy nazariya, cheklangan resurslardan foydalanib cheklanmagan ehtiyojlarni qondirish muammolari va echimlarini oʻrganadigan fandır. Shu oʻrinda yana aytish kerakki, hozircha iqtisodiy nazariyada resurslar tushunchasiga tor maʼnoda yondashiladi, yaʼni tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan resurslarga mehnat sarfi va moddiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bogʻlik boʻlgan resurslar qoʻshiladi. Bu resurslar esa oʻz navbatida asosan xomashyo, material, yoqilgʻi va shunga oʻxshaganlardan iboratdir va ular konkret qiymat va bahoga egadir. Shuning bilan bir qatorda tovar xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga koʻplab avval mehnat sarf qilinmagan yoki ulardan foydalanish uchun qisman mehnat sarf qilingan resurslar (havo, suv, er, oʻrmon va boshqa resurslar) va turlar jalb qilinadi. Bu resurslar esa ularni ishlab chiqarishga inson mehnati sarf qilinmaganligi uchun yoki kam mehnat sarf qilinganligi uchun zarur darajada baholanmaydi.

NATIJALAR

Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun boʻlgan xarajatlar tarkibida yetarli darajada baholanmaydi. Shunday ekan ishlab chiqaruvchilar ulardan (tabiiy resurslardan) tejab-tergab, oqilona foydalanishdan manfaatdor emaslar. Chunki tekinga keladigan yoki arzon turadigan narsani tejashdan, uni asrab-avaylab ishlatishdan

iste'molchi uchun naf katta emas. Boshqacha qilib aytganda, ularni tejash ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytirib yubormaydi. Shunday ekan, tovar va xizmat ishlab chiqaruvchilarning daromad darajasi tabiiy resurslardan tejimli foydalanish bilan juda zaif bog'langan. Tabiiy resurslardan hozirgacha xo'jasizlarcha foydalanishning asosiy sababi ham shu. Ishlab chiqaruvchi sifatida namoyon bo'lgan jamiyat va resurslar bilan ta'minlovchi sifatida bo'lgan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni bir tomonlama xarakterga ega bo'lganligi va bu narsani tabiatdan faqat olishga va unga tashlashga yo'naltirilganligi hozirga kelib nafaqat tabiiy resurslarni charchashiga, toliqishiga, balki atrof-muhitni ifloslanishiga ham olib keldi. Chunki tabiiy resurslardan xo'jasizlarcha foydalanish ular sarfini haqiqiy ehtiyojdan ancha ko'p bo'lishiga olib keladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ekologik muammolarni bartaraf etishning asosiy omillaridan biri bu insonlardan Ekologik madaniyatni oshirishga qaratish zarur, ta'kidlash joizki, ekologik madaniyat bir nechta faktorlar natijasi o'laroq shakllanadi yoxud yuzaga keladi: jumladan, tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar, ko'nikmalar, ekologik tarbiya, qadriyat va an'analar ekologik madaniyat shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bugungi global ekologik muammolar insoniyatni bir bo'g'ma ilondek qamrab olgan paytda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish va ularda atrof-muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish masalasi xam iqtisodiy xam ijtimoiy jihatdan xam ulkan ahamiyat kasb eta boshladi deb hisoblash o'rinlidir.

REFERENCES:

1. Реймерс Н.Ф. Экология: Теория, законы, правила принципы и гипотезы. М.: Журнал “Россия молодая”, 1994, с. 224-226.
2. Эргашев А. Умумий экология. Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
3. Инновационное развитие – залог успешной модернизации и реформирования экономики. Экологический вестник, 2009, № 3-4, с. 27
4. И.А. Носиров, мустақил изланувчи, ТДИУ. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2016 йил